

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(63 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(63 KB\)](#)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining Qoraqalpog'iston Televideniesida o'tkaziladagan "Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik ahamiyati va ulushini oshirish to'g'risida"gi mavzusidagi ochiq muloqatdagi kirish so'zi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining Qoraqalpog'iston Televideniesida o'tkaziladagan "Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik ahamiyati va ulushini oshirish to'g'risida"gi mavzusidagi ochiq muloqatdagi kirish so'zi

**Assalomu aleykum,
Hurmatli tadbirkorlar va teletomoshabinlar!**

Barchamizga ma'lum, muxtaram Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, ularga qulay shart-sharoitlar, sog'lom raqobat muxitini yaratishda qator farmonlar chiqarilib qarorlar qabul qilinmoqda. Shularning qatorida davlat mulkini xususiylashtirishga, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga, investorlarni, jumladan, chet el investorlarini jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bularga misol tariqasida Muhtaram Prezidentimizning davlat tasarrufidagi ob'ektlarni tadbirkorlarga «nol» qiymatda, ochiq tender savdosi orqali sotish va foydalanishga yaroqsiz imoratlarni buzib ularning o'rniga tadbirkorlarga servis va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish uchun berish bo'yicha qabul kilingan **2014 yil 3 iyuldagi 2200-sonli** hamda **2015 yil 28 apreldagi 2340-sonli** Qarorlarini aytib o'tsak bo'ladi.

Qarorlarda ko'zlangan maqsad xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, korxonalar ustav kapitalidagi aktivlar va davlat ulushlarini xususiy investorlar, birinchi navbatda, xorijiy investorlarga sotish va shu asosda ishlab chiqarishni modernizatsiya hamda texnologik yangilash, ichki va tashqi bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga respublikamiz iqtisodiyotida xususiy mulk roli va darajasini tubdan oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirishdan iborat.

Mazkur qaror (*2200-sonli*) asosida o'tgan 2014 yilning o'zida Qoraqalpog'iston Respublikasida **15 ta** foydalanilmay bo'sh turgan davlat ob'ektlari tadbirkorlik sub'ektlariga **8,9 mlrd. so'm** investitsiya kiritish va **335 ta** yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan "nol" xarid qiymatda berildi.

Shu bilan birga, Ommaviy savdolar orqali **6 ta** davlat ob'ektlari **3,7 mlrd. so'mga** tadbirkorlarga sotilib ular tomonidan o'z faoliyatini kengaytirish natijasida **107 ta** yangi ish o'rinlari tashkil qilindi.

Bundan tashqari, foydalanishga yaroqsiz **52 ta** ob'ektlar belgilangan tartibda buzildi va xokimiyatlar tomonidan bushagan **3,2 gektar** yer maydonlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berildi va ular tomonidan yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shahobchalari tashkil qilish natijasida **75 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning joriy yilning 16 yanvardagi ma'ruzalarida, Iqtisodiyot tarmoqlarida davlat ulushini iqtisodiy asoslangan miqdorgacha qisqartirish va shu asosda xususiy sektor ulushini oshirish hamda **mamlakatimizda tadbirkorlik sohasini** yanada rivojlantirish va korxonalarni sog'lomlashtirish orqali **yangi ish o'rinlarini yaratish** asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan edi.

Shunga asos, bu borada **Muhtaram Prezidentimizning joriy yilning 28 aprelda "Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik ahamiyati va ulushini oshirish to'g'risida"**gi PQ-2340-sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning qabul qilinishi **avvalam bor, xususiy mulkdorlar ulushini oshirish**, tadbirkorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik yangilash, **qolaversa pirovard natijada** yangi ish o'rinlarini yaratishga **katta zamin bo'lib xizmat qiladi**.

Mazkur qarorga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **183 ta** davlat mulki ob'ektlaridan kelgusida samarali foydalanish bo'yicha takliflar shakllantirilgan. Jumladan:

22 ta (*shu jumladan 3 tasi xorijiy investorlarga Xo'jayli, Beruniy va Chimboy tumanlarida*) aktsiyadorlik jamiyatlarining ustav fondidagi hamda korxonalar va xo'jalik jamiyati davlat aktivi va xo'jalik boshqaruv organlari ulushlarini ommaviy savdolar orqali xususiy sektorga, avvalombor, strategik xorijiy investorlarga sotilishi, bunda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik yangilash raqobatbardosh mahsulotlarni tayyorlashni tashkil etishga e'tibor qaratish mo'ljallangan; (*Nukus shahrida 12 ta, Chimboy va Xo'jayli tumanlarida 3 ta, Qo'ng'iro't, Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l tumanlarining har birida 1 ta*)

41 ta davlat mulki ob'ektlarini, investitsiya majburiyati qabul qilish sharti bilan tanlov asosida "nol" xarid qiymatida;

(*Nukus shahrida 10 ta, Mo'ynoq, Qorao'zak va Taxtako'pir tumanlarining har birida 5 ta, Qo'ng'iro't va Kegeyli tumanlarining har birida 4 ta, Amudaryo tumanida 3 ta, Beruniy tumanida 2 ta Qonliko'l, Nukus va To'rtko'l tumanlarida 1 ta, ob'ektlar mavjud.*)

31 ta foydalanilmayotgan davlat mulki ob'ekti ommaviy savdolarda xususiy sektorga sotilishi rejalashtirilgan.

(Nukus shahrida va Taxtako'pir tumanining har birida 5 ta, To'rtko'l tumanida 4 ta, Qo'ng'iro't, Beruniy va Ellikqal'a tumanlarining har birida 3 ta, Kegeyli va Xo'jayli tumanlarining har birida 2 ta, Sho'manay, Qonliko'l, Nukus va Chimboy tumanlarining har birida 1 ta ob'ektlar mavjud.)

Shu bilan birga, **25 ta** ishlayotgan va past rentabelli korxonalariga tugatish mexanizmi qo'llash taklif etilmoqda.

(Nukus shahrida 10 ta, Kegeyli va Beruniy tumanlarida 3 ta, Qorao'zak va Xo'jayli tumanlarining har birida 2 ta, Sho'manay, Nukus, Qo'ng'iro't, Amudaryo va Chimboy tumanlarining har birida 1 ta ob'ektlar mavjud.)

64 ta foydalanilmayotgan davlat mulki ob'ektlarining vakolatli davlat organlari xulosasi va tuman (shahar) hokimiyatlari qarorlari bo'yicha joriy yil may oyida bo'zilib va **28,7 gektar** bo'shaydigan yer maydonlarini tadbirkorlarga berish belgilangan.

(Amudaryo tumanida 14 ta, Chimboy tumanida 9 ta, Mo'ynoq tumanida 7 ta, To'rtko'l va Kegeyli tumanlarining har birida 6 ta, Sho'manay va Qo'ng'iro't tumanlarining har birida 4 ta, Beruniy va Qonliko'l tumanlarining har birida 3 ta, Nukus shahri, Xo'jayli va Qoraqzak tumanlarining har birida 2 ta, Taxtako'pir va Ellikqal'a tumanlarining har birida 1 ta ob'ektlar mavjud.)

Qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha bizning oldimizda turgan amalga oshirishimiz zarur bo'lgan ishlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tuman hokimlariga, shuningdek vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari rahbarlariga shaxsan topshiriqlar berilgan.

Dastur ijrosi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashida shtab tashkil qilindi. Unga barcha mutasaddi tashkilotlar rahbarlarni kiritilgan.

Mazkur qarorning bajarilishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi raqobat qo'mitasi tomonidan hokimliklar va balansda saqlovchi vazirlik va idoralar bilan birgalikda **22 ta korxonalarining aktsiyasini (ulushlarini) va davlat ob'ektlarini** .

Ishonchli investorlarni, ayniqsa chet el investorlarini dasturda belgilangan ob'ektlarni sotilishiga tezroq jalb qilish maqsadida biznes forumlar tashkil qilinmoqda hamda ushbu qaror mazmun mohiyatini tadbirkorlarga yetkazish va ob'ektlar tug'risida ma'lumotlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Televideniesida video rolik tayyorlangan.

41 ta "nol" xarid qiymatida sotiladigan ob'ektlarni tanlov savdolariga chiqarilishini ta'minlash bo'yicha mazkur ob'ektlarning investitsiya majburiyatlari ishlab chiqilgan. Mazkur ob'ektlarni investorlarga berish natijasida qariyb **14 mlrd. so'm** (yangi texnologiya, asbob-uskuna olib kelish, rekonstruksiya ishlari turidagi) investitsiyalar kiritilishi va **600 taga** yaqin yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan.

Ommaviy savdolar (auksionlar) orqali sotilishi belgilangan

31 ta davlat ob'ektlari bo'yicha ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinmoqda.

64 ta ob'ektlarni buzish va bo'shagan yer maydonlarini tadbirkorlik sub'ektlariga ajratish bo'yicha hokimliklar va balansda saqlovchi tashkilotlar tomonidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Buzishdan bo'shagan yer maydonlarini kelgusida samarali foydalanish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis sohasi ob'ektlarini barpo etish uchun konkurs asosida berilishi ta'minlanadi. Bularning natijasida qo'shimcha **125 ta** yangi ish o'rinlari yaratilishi kuzda tutilgan.

Shu bilan birga, Prezidentimizning qarori bilan davlat ob'ektlarini xususiy lashtirish jarayoniga qator imtiyoz va yengilliklar kiritildi.

Jumladan, ommaviy savdolarga chiqarilgan davlat ob'ekti **2 oy** davomida sotilmagan taqdirda uning sotilish narxi **har 15 kunda 10 foizga** kamaytirilishi belgilangan, bunda kamaytirish mexanizmi savdoga chiqarilgan narxning **50 foizigacha** qo'llaniladi.

Agar savdoga chiqarilgan ob'ektning narxi **50 foizgacha** kamaytirilgandan keyin yana **bir oy davomida** sotilmagan taqdirda bu ob'ekt investitsiya majburiyatini qabul qilish sharti bilan **"nol"** xarid qiymatda sotilishi yoki belgilangan tartibda **buzilishi** belgilangan.

Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz qarorining qabul qilinishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'z faoliyatini kengaytirishga, xususiy sektorning iqtisodiyotda ulushini oshirishga, chet el investorlarini jalb qilishga katta imkoniyat yaratadi.

Shuni alohida aytib o'tmoqchiman, bo'sh turgan davlat ulushidagi bino va inshootlarni investitsiya kiritish sharti bilan tadbirkorlik sub'ektlariga **"nol"** qiymatda bepul berilganda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi **282-moddasining** ikkinchi qismi

18 bandiga asosan O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida ye

Investitsiya majburiyati bajarilib korxonaning balansiga olingandan so'ng yagona soliq to'lovchi korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011 yil 3 martta ro'yxatdan o'tgan **"Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"**gi 2203-son Nizom talablari bo'yicha yagona soliq to'lovchilari yagona soliq to'lovini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tegishli yil uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha, lekin eng kam miqdordan - egallab turgan yer maydonidan kelib chiqib, ushbu Nizomda ko'rsatilgan pasaytiruvchi koeffitsientlarni hisobga olgan holda hisoblab chiqarilgan yer solig'ining **uch barovaridan kam bo'lmagan** miqdorda **yagona soliq to'lovini** to'laydilar.

Hurmatli tadbirkorlar, Sizlarga yaratilayotgan qulaylik va imtiyozlardan foydalanishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, byurokratik to'siqlar haqida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashida tashkil etilgan **222-46-33** Ishonch telefoniga murojaat etishlaringiz yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali **my.gov.uz** hukumatlik portali orqali onlayn tarzda taklif va shikoyatlaringizni bildirib borishingiz mumkin.

Ishonchimiz komilki, Muhtaram Yurtboshiimiz va Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan Farmonlar, Qarorlar hamda Farmoyishlar ijrosini ta'minlashda barchangizga mustahkam sog'liq, ishlaringizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)